

**HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA BADIY TAFAKKUR
YANGILANISHI VA RAMZ POETIKASI (NAZAR ESHONQUL IJODI
MISOLIDA)**

Abdurasulova Shohista

Navoiy davlat universiteti

Adabiyotshunoslik yo‘nalishi I-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: dots.f.f.d(PhD) M.A.Rizoyeva

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.04.2026

Revised: 24.04.2026

Accepted: 25.04.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*hikoyachilik,
ramziylik, modern
adabiyot, ichki
kechinma, psixologik
tasvir, badiiy shartlilik,
intellektual nasr.*

Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek nasridagi hikoya janrining yangilanish jarayonlari, badiiy-estetik xususiyatlari va ramziy talqin masalalari — yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalaridagi inson ruhiyati, ichki kechinmalar tasviri hamda ramziy obrazlar tizimi misolida tahlilga tortilgan.

Mustaqillik yillarida o‘zbek nasri mazmunan va shaklan tubdan yangilandi. Haqiqatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon etish o‘rniga, ramziy obrazlar, majozlar orqali ifodalash kuchaydi. Zamonaviy hikoyachilikda badiiy tafakkur markaziga insonning ichki olami, uning ruhiy iztiroblari va o‘zligini anglash muammosi qo‘yildi. Bu jarayonda ramziylik haqiqatni ifodalashning asosiy vositasiga aylandi.

Hikoyachilikda, xususan, Nazar Eshonqul ijodida ramziy talqin voqelikning mohiyatini chuqurroq ko‘rsatishga xizmat qildi. Nazar Eshonqul ijodida ramzlar asarning tashqi ko‘rinishi emas, balki uning asosiy mazmuniy poydevorini tashkil etadi. Yozuvchi o‘z

hikoyalarda falsafiy qarashlarni tasvirlashda hayotiy voqelikni ramziy timsollar orqali ifodalashga tayanadi.

“Maymun yetaklagan odam” hikoyasida markaziy o‘rin tutgan maymun obrazi insonning ichki dunyosidagi ma’naviy tanazzulni ifodalaydi. Muallif ushbu timsol orqali insonning o‘zligidan uzoqlashishi, o‘zgalarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishi va natijada o‘zining haqiqiy insoniy qiyofasini yo‘qotishini ko‘rsatib beradi. Inson o‘zining yuksak fazilatlarini boy berganda, uning o‘rnini hayvoniy tabiat va nafs egallashi qahramon fojiasi orqali ochib berilgan.

“Qo‘l” hikoyasida esa voqealar rivoji badiiy shartlilik asosiga qurilgan. Tanadan mustaqil ravishda ajralib chiquvchi qo‘l obrazi insonning o‘z xatti-harakatlari va qilmishlari uchun javobgarligini anglatadi. Bu obraz orqali yozuvchi vijdon masalasini ko‘ndalang qo‘yadi: inson o‘zidan va o‘z harakatlaridan qochib qutula olmaydi. Har bir amal, hatto jismonan ajralgan bo‘lsa ham, shaxsning ma’naviy qiyofasini belgilovchi guvoh sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazar Eshonqul nasri kitobxonni voqelikka chuqurroq nazar tashlashga va har bir tasvir zamiridagi yashirin ma’nolarni anglashga undaydi. Uning asarlari insonning ichki olamidagi ziddiyatlarni, ma’naviy qashshoqlikka qarshi kurashni va shaxsiyatning murakkab qirralarini falsafiy mushohada qilishga xizmat qiladi.

Modernistik hikoya janrida ko‘pincha an’anaviy syujetdan ko‘ra ruhiy-psixologik tasvir yoritiladi. Zamonaviy hikoyalarda qahramon ko‘pincha jamiyatdan begona, ichki monologga ega shaxs sifatida tasvirlanadi. N. Eshonqul hikoyalarda rang, makon, predmet va obrazlar oddiy tasvir vositasi emas, balki qahramon ruhiyatini ochuvchi badiiy kod vazifasini bajaradi.

Ana shunday hikoyalardan biri “Oq alanga” hikoyasidir. Ushbu hikoya muhabbatning o‘lmasligini tarannum etuvchi asardir. Hikoyada oq rang va alanga obrazi tashqi hodisani emas, balki ichki kechinmalar intensivligini ifodalaydi. Yigitning ichki dunyosi, sog‘inish kechinmalari oq qog‘ozga yozilgan xatlar orqali tasvirlanadi. Xatlar deraza ustiga, keyin burchaklarga va eshik oldilarigacha kelib, xonaning har bir burchagini qoplaydi. Natijada xona lovullagan oq alangaga aylanadi. Bu esa yigitning ichki iztiroblarining vizual ramzi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, muhabbat ramziy tarzda shunday ifodalanadi: “Muhabbat – inson qalbida ochilgan loladir. Agar u so‘lsa, umrning o‘zi ham so‘ladi...”. Lolalar obrazi – poklik, muhabbat va ba’zan motam ramzi. Asarda lolalarning oq rangda keltirilishi yigitning sevgisi pokligini va ma’lum bir hissiy yakunni ramziy ifodalaydi. Alanga ramzi esa yigitning qalbida shakllangan hissiy rang-baranglik va ichki tafakkurni ko‘rsatadi.

Nazar Eshonqulning “Bahovuddinining iti” hikoyasida ham qahramon bo‘lgan rejissyor jamiyatdan begonalashgan shaxs sifatida ko‘rsatilib, ichki iztiroblari markazga olinadi. Hikoya boshiga “Mantiq ut-tayr” asaridan olingan: “Shayx u go‘zalning jamolini ko‘rish umidida yor ko‘chasidagi itlar orasiga qo‘shildi” misrasi epigraf qilib berilgan bo‘lib, bu bevosita tasavvufiy talqinni ochadi. Tasavvufda “yor” – Haq, ya’ni ilohiy jamol timsoli. Nafs esa ko‘pincha it qiyofasida tasvirlanadi. So‘fiylik talqinida inson komillikka erishishi uchun avvalo “ichidagi itni” – ya’ni nafsni jilovlashi kerak bo‘ladi. “Itlar orasiga qo‘shilish” esa nafsni sindirish, kibrni yo‘qotish ramzidir.

Hikoyada qahramonning itga aylanish jarayoni tubanlashish emas, balki kibrini sindirgan oshiq timsolidir. “Ko‘zlarida mung va hasrat qotib qolgan, o‘zi aftoda, ozg‘in, qovurg‘alari ko‘rinib yotar, oyoqda zo‘rg‘a turganday tuyulardi menga”. Ushbu parchadagi it – ishq azobini chekayotgan ruh ramzidir. Uvullash esa oddiy tovush emas, balki qalb nidosi, ichki iztirobning sadolaridir. N. Eshonqul ushbu hikoyada modernistik va tasavvufiy yondashuvni birlashtirib, qahramonning nafs bilan kurash va ruhiy o‘shish jarayonini ramziy tarzda ochib beradi.

Nazar Eshonqul asarlari orqali o‘zbek nasrida insonning ichki “men”ini tadqiq etuvchi intellektual yo‘nalish mustahkamlandi. Adabiyotshunos olim Ahmad A‘zam yozuvchi haqida shunday deydi: “Yozuvchining iste’dodi uning badiiy tafakkurga nima o‘zgarishlar olib kirib, adabiy jarayonga qanday ta’sir o‘tkazishi bilan belgilanadi. Nazar, hech shubhasiz, shunday yangi jarayon yaratayotgan adib”. Darhaqiqat, Nazar Eshonqul asarlari adabiy jarayonga olib kirgan yangicha estetik qarashlari va ruhiy tahlilning teranligi bilan zamonaviy o‘zbek adabiyotida muhim hodisa sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. -Toshkent, "Fan", 2007. 63-bet.
2. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. - Toshkent., "Yangi asr avlodi", 2006. 62-bet.
3. Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyollar. - T., "Ma'naviyat", 2000.
4. Ulug‘bek Hamdam. Jahon adabiyoti: modernizim va postmodernizm. – T.: 2020.
5. Nazar Eshonqul. Momoqo'shiq. - Toshkent, 2019.